

YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2021/4



# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

6 **SHODMONOV MIRZOHI MUXTOR O'G'LI**  
Siyosiy partiyaning huquqiy mohiyati va uning  
nazariy-huquqiy tahlili

13 **BOYMURODOV BOTIR PANJI O'G'LI**  
Norma ijodkorligi jarayonida fuqarolar  
ishtirokining nazariy asoslari tahlili

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.  
MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

22 **PO'LATOV MIRZOHI QO'ZIMURODOVICH**  
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish –  
Konstitutsiya himoyasida

31 **USMANOV OTABEK ODILBEK UGLI**  
Organizational and legal aspects of transition  
to digital technologies and forms of electronic  
public control Uzbekistan

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA  
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

39 **ISAQULOV SHUHRAT NORQOVULOVICH**  
**ACHILOVA LILIYA ILHOMOVNA**  
Turizm va migratsiya: joriy holat va istiqbol

47 **IMOMOV NURILLO FAYZULLAYEVICH**  
O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha  
yuridik shaxs muassisi javobgarligining nazariy  
va amaliy muammolari

57 **ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ**  
Некоторые проблемы определения  
гражданско-правового статуса виртуального  
мира и его объектов

66 **IBROHIMOV AZIMJON ABDUMO'MIN O'G'LI**  
Korporatsiyani boshqarishda fidusiar  
majburiyatlar va ularni O'zbekistonda qo'llash  
imkoniyatlari

74 **JURAYEVA ASAL BAKHTIEVNA**  
**CHAOEN WANG**  
Whose choice of law in arbitration: approaches  
of cis on applicable law

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. XO‘JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 84 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**  
Onlayn sud majlisleri fuqarolik sud majlislarini  
virtuallashtirishning yangi bosqichi

12.00.06 – TABIIY RESURLAR HUQUQI.  
AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 91 **UZAKOVA GO‘ZAL SHARIPOVNA**  
Shaharsozlik sohasida ekologik talablarga rioya  
etishning huquqiy masalalari

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.  
PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI  
MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI  
TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

- 100 **BAKAYEV SHAXRIYOR BAXTIYOROVICH**  
Ma‘muriy sud ish yurituvi tushunchasi va  
mazmunining ilmiy-nazariy tahlili

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI  
OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 107 **SAGDULLAYEV FATHULLA  
SHUKURULLAYEVICH**  
Hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan  
chetga chiqishning obyekti yuzasidan ayrim  
mulohazalar
- 114 **NAJIMOV MIRATDIYIN  
SHAMSHETDINOVICH**  
O‘n olti yoshga to‘lmagan shaxsga nisbatan  
uyatsiz-buzuq harakatlar qilish jinoyati  
tushunchasi va ahamiyati
- 119 **DJALILOV FURKAT ZAKIROVICH**  
Davlat xizmatchisining mulkiy manfaatdorligi  
bilan bog‘liq jinoyatlarning obyekti yuzasidan  
ayrim mulohazalar
- 126 **XAMITOV BAUYIRZHAN NUURABAYULY**  
Противодействие рейдерству: мировой опыт

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA, TEZKOR-QIDIRUV  
HUQUQ VA SUD EKSPERTIZASI

- 134 **ABDULLAYEV RUSTAM QAHRAMONOVICH**  
Hodisa joyini ko'zdan kechirishning kriminalistik ta'minoti samaradorligi hamda natijaviyligi tushunchalari haqida ayrim fikrlar
- 140 **ИЛЬДЕБАЕВ РИЗАБЕК ЕРМАГАМБЕТ**  
К проблеме последующего этапа расследования преступлений, связанных с подделкой документов в сфере образовательной деятельности
- 150 **САХАТОВА САМАЛ ЕРБОЛАТОВНА**  
Буллинг среди несовершеннолетних как один из факторов формирования личности преступника
- 156 **AMANBAYEVA ALTINAY GALIMJANOVNA**  
Voyaga yetmaganlarning jinsiy daxlsizligiga qarshi jinoyatlarni tergov qilish kriminalistik usullarining zamonaviy yo'nalishlari shakllanishi va rivojlanishi tahlili

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

- 163 **MUSAEV DJAMALIDDIN KAMALOVICH**  
International legal mechanism for monitoring compliance with agreements on cooperation between states in the fight against illicit trafficking in narcotic drugs
- 173 **EGAMBERDIYEV DILSHOD ALISHEROVICH**  
Nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi sifatida xalqaro tergov komissiyalari tuzishning xalqaro-huquqiy asoslari

12.00.12 – KORRUPSIYA MUAMMOLARI

- 181 **QO'CHQOROV ZAFARJON QAYUMJON O'G'LI**  
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy huquqbuzarlik shakllari, tasnifi va o'ziga xos xususiyatlari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)

- 190 **GULYAMOVA GULNORA YAKUBOVNA**  
Til – huquqning yashash sharti

UDC: 349.6(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0001-9357-3200

## SHAHARSOZLIK SOHASIDA EKOLOGIK TALABLARGA RIOYA ETISHNING HUQUQIY MASALALARI

**Uzakova Go'zal Sharipovna,**  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
"Ekologiya huquqi" kafedrasini mudiri,  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent,  
e-mail: g.uzakova@tsul.uz

**Annotatsiya.** Shaharsozlik sohasida ekologik talablarga rioya etish masalalari huquqiy fanlarning ham o'rganish obyekti bo'lib, bunday talab va me'yorlarni belgilashdan asosiy maqsad fuqarolar uchun qulay yashash sharoitini ta'minlashdan iboratdir. Shaharlar atrof-muhitini huquqiy muhofaza qilish masalalari BMTning Inson atrof-muhiti masalalari bo'yicha Stokgolm konferensiyasi (1972-yil), BMTning uy-joy va barqaror shahar rivojlanishi bo'yicha Xabitat III konferensiyasida (2016-yil 17-20-oktabr, Kito, Ekvador) ko'rib chiqilgan bo'lib, Xabitat III konferensiyasi doirasida yangi shaharsozlik dasturi qabul qilindi. Bugungi kunda dunyo shaharlaridagi asosiy ekologik muammolar qurilish ishlarini amalga oshirish bilan bog'liq ravishda ko'rib chiqiladi. Bunda qurilish ishlarini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlari va ilmiy-nazariy asoslarini o'rganishga yuridik fanlar tizimida alohida e'tibor qaratiladi. Mazkur maqolada hududlarni zonalashtirish, qurilish jarayonini ekologizatsiyalash, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning afzalliklari, chiqitsiz texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, energiya tejamkor bino-inshootlar va uy-joylarni barpo etish masalalari ilmiy-huquqiy jihatdan o'rganildi. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi strategik maqsadlarga erishishda ekologik jihatdan samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitga salbiy ta'sirining oldini olish va kamaytirish, ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash, qurilish faoliyatida ham "yashil" standartlarni qo'llashning ilmiy-nazariy asoslari ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** barqaror rivojlanish, shaharsozlik faoliyati, "yashil" iqtisodiyot, "yashil" standartlar, ekologizatsiyalash, kamchiqit texnologiya, energiya tejamkor inshoot.

### ПРАВОВЫЕ ВОПРОСЫ СОБЛЮДЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕБОВАНИЙ В СФЕРЕ ГРАДОСТРОИТЕЛЬСТВА

**Узакова Гузал Шариповна,**  
кандидат юридических наук, доцент,  
заведующая кафедрой "Экологическое право"  
Ташкентского государственного  
юридического университета

**Аннотация.** Вопросы соблюдения экологических требований в градостроительстве также являются объектом изучения юридических наук, основной целью определения таких требований и нормативов считается обеспечение благоприятных условий жизни граждан. Вопросы правовой охраны городской среды рассматривались на Стокгольмской конференции по проблемам окружающей человека среды (1972 год), конференции Хабитат-III по жилью и устойчивому городскому развитию (17-20 октября 2016 года, Киото, Эквадор), и в рамках конференции Хабитат-III была принята новая программа градостроительства. Сегодня основные экологические проблемы в городах мира рассматриваются в связи с осуществлением строительных работ. В системе юридических наук особое внимание уделяется изучению организационно-правовых мер и научно-теоретических основ строительных работ. В данной статье с научной и юридической точки зрения были изучены вопросы зонирования территорий, экологизации строительного процесса, преимущества развития «зеленой» экономики, внедрения безотходных технологий, а также создания энергоэффективных зданий и домов. Кроме того, были разработаны научно-теоретические основы внедрения экологически эффективных инновационных технологий в достижение стратегических

целей в области охраны окружающей среды, предотвращения и снижения негативного воздействия на окружающую среду, обеспечения роста экологически ориентированной экономики, применения «зеленых» стандартов в строительной деятельности.

**Ключевые слова:** устойчивое развитие, градостроительная деятельность, «зеленая» экономика, «зеленые» стандарты, экологизация, малоотходные технологии, энергоэффективное строительство.

## LEGAL ISSUES OF ENVIRONMENTAL COMPLIANCE IN URBAN PLANNING

**Guzal Uzakova Sharipovna,**

Head of the Environmental Law Department  
of Tashkent State University of Law,  
PhD, Associate Professor

**Abstract.** *The issues of compliance with environmental requirements in the field of urban planning are also the subject of study of legal sciences, and the main purpose of setting such requirements and standards is to provide comfortable living conditions for citizens. Issues of legal protection of urban environment were discussed at the UN Stockholm Conference on Human Environment (1972), the UN Habitat III Conference on Housing and Sustainable Urban Development (October 17-20, 2016, Kyoto, Ecuador). A new urban development program was adopted as part of the Habitat III conference. Today, the main environmental problems in cities around the world are considered in connection with the implementation of construction work. At the same time, special attention is paid in the system of legal sciences to the study of organizational and legal measures and the scientific and theoretical basis of the construction work. This article examines the issues of zoning, greening the construction process, the benefits of developing a “green” economy, the introduction of waste-free technologies, as well as the construction of energy-efficient buildings and housing. In addition, the scientific and theoretical basis for the introduction of environmentally friendly innovative technologies in achieving strategic goals in the field of environmental protection, prevention and reduction of negative impact on the environment, ensuring the growth of environmentally oriented economy, application of “green” standards in construction.*

**Keywords:** sustainable development, urban planning, “green” economy, “green” standards, environmentalization, low-tech, energy-efficient construction.

### Kirish

Ekologizatsiya haqida so‘z borganda, shuni ta’kidlash lozimki, ekologiya huquqi kompleks huquq sohasi sifatida jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sohasida shakllanadigan murakkab munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu jarayonda vujudga keladigan munosabatlarni ikki turga ajratish mumkin: iqtisodiy (insonlar tomonidan ularning ehtiyojlarini qondirish uchun tabiiy resurslardan foydalanish) va ekologik (insonlar va ularning tabiiy yashash muhitini saqlab qolish uchun atrof-muhitni muhofaza qilish). Professor Sh.X. Fayziyev ta’kidlaganidek, ekologizatsiyalash jarayoni, ya’ni ekologik norma va talablarni tegishli qonunchilik bilan tartibga solinadigan ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyatiga tatbiq etish jarayoni kun sayin o‘sib bormoqda. Bu ekologizatsiyalashgan normativ-huquqiy hujjatlar miqdori oshishi hamda takomillashuviga sabab bo‘lmoqda [1].

B.B. Alixonov esa “boshqa sohalaridagi qonunchilikning ekologiya talablariga mutanosibliigi, uning jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini ta’min-

lash ekologik qonunchilikni takomillashtirishning asosiy mezonlaridan sanaladi” [2], deb hisoblaydi.

M.M. Brinchukning yozishicha, ekologizatsiya ekologik talablarni joriy qilish va tatbiq etish jarayoni sifatida insonlarning xo‘jalik va atrof-muhit tabiiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa faoliyatlarini amalga oshirishlarida inobatga olishlari lozim bo‘lgan tabiatni rivojlantirish qonunlari ustuvorligini e’tirof etishga asoslanadi. Uning maqsadi ekologik talablarni xo‘jalik, boshqaruv va atrof-muhit tabiiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayoniga tatbiq etishdan iborat [3].

Ekolog-huquqshunos olim D.I. Safarov ta’kidlaganidek, aksar hollarda ekologizatsiyalash masalasi atrof tabiiy muhit va alohida tabiiy resurslarni muhofaza qilishni ta’minlash zaruriyati nuqtayi nazaridan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini cheklash bilan bog‘liq bo‘ladi. Muallifning fikricha, ekologizatsiyalash, shubhasiz, ekologik

munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasini kengaytirish hamda sifatini oshirishga xizmat qiluvchi jarayon bo'lib, basharti, u ekologik qonunchilik doirasida puxta o'ylanmagan, har tomonlama ishlanmagan va sinovdan o'tkazilmagan bo'lsa, o'zini oqlamasligi mumkin [4].

Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish munosabatlari "ikki tomonlama jarayon" hisoblanadi. "Tabiatni muhofaza qilish, agar dialektik tushuniladigan bo'lsa, undan oqilona, har tomonlama va ilmiy jihatdan foydalanishni anglatadi" [5]. Tabiiy obyektlardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilishdan kelib chiqadigan munosabatlar o'xshashdir. Bu munosabatlar turlicha bo'lsa-da, ularning kelib chiqish sohasi bir xil, yagona maqsad va mazmunga ega (tabiat yoki uning tarkibiy qismlarini saqlash, tiklash, yaxshilash, oqilona foydalanish). Tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlar shu qadar chambarchas bog'liqqi, aslida, ularni bir-biridan ajratish qiyin [6], garchi bu munosabatlar ayrim hollarda qarama-qarshi jihatlariga ega bo'lsa ham.

Tabiiy resurslarning roli, bir tomondan, ularidan foydalanish orqali insonning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish, ikkinchi tomondan, hayotni ta'minlovchi funksiyalarni bajarish va ularning ekotizimdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Bu borada S.A. Bogolyubov ta'kidlaganidek, ekologiya huquqini kompleks huquq tarmog'i sifatida tushunish "tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanishni sun'iy ravishda ajratmaslikka imkon beradi" [7].

Ekologiya bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish nafaqat maxsus qonunlar, balki atrof-muhitga oid munosabatlarni qamrab olgan fuqarolik, ma'muriy, mehnat, jinoyat, shaharsozlik va boshqa huquq sohalarida ham amalga oshiriladi.

M.M. Brinchuk aytganidek, ekologik va huquqiy normalarni amalga oshirish mexanizmi xo'jalik faoliyatining turli bosqichlarini tartibga soluvchi ekologizatsiyalashgan me'yorlarni o'z ichiga oladi [8]. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida huquqiy tartibga solish maqsadiga erishish "qonunning boshqa tarmoqlarini ekologizatsiyalashdan ajralgan holda imkonsizdir" va "tabiatni muhofaza qilish talablarini hisobga olish qonunchilik tizimining rivojlanishi uchun eng muhim

tamoyil bo'lishi kerak" [9]. Qonunchilikni ekologizatsiyalash deganda, ekologik talablarning qonunchilikning boshqa sohalarida aks ettirilishi tushuniladi [10]. Bunda hamisha ham ekologik talablar to'g'ridan-to'g'ri qonunchilik hujjatlariga singdirilmaydi, bir qator hollarda normalarni sharhlash orqali huquqni qo'llash amaliyotini ekologizatsiyalash ham muhim rol o'ynaydi. [11] Qonunchilikni ekologizatsiyalash nafaqat O'zbekiston, balki aksariyat xorijiy mamlakatlarda ham keng qo'llaniladi. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasi bir qator jiddiy ekologik muammolar bilan to'qnash kelishi natijasida huquqiy tartibga solishning barcha sohalarida ekologizatsiyalashni amalga oshirdi.

Ekologizatsiyalashgan normalarni turli xil normativ-huquqiy hujjatlarga kiritish mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, ekologik inqiroz xavfi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi va hayotning turli sohalarida tabiat qonunlari, insonlar tomonidan ekologik talablarga rioya qilish va ijro qilishni hisobga olish zarurati bilan bog'liq.

#### **Material va metodlar**

Mazkur maqola doktrinal tadqiqot sifatida qonun hujjatlari va ilmiy-nazariy manbalar tahlilini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid ilmiy tushunchalar, nazariyotchi olimlarning qarashlari, xulosa va fikrlari o'rganilgan. Shuningdek, qurilish sohasiga oid qonun hujjatlari qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. Maqola mavzuga oid asosiy tushunchalarni o'rganishdan boshlangan, ushbu tushunchalarni rivojlantirish bilan davom ettirilgan hamda mavjud mexanizmlarni takomillashtirish, muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatishga oid xulosalarga kelish bilan yakunlangan. Bu xulosalarning amalga oshishi insoniyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda qurilish sohasini ekologizatsiyalashning o'rni va rolini ochib berish, aholi punktlarida atrof-muhitni sog'lomlashtirish hisobiga fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Qurilish jarayonini ekologizatsiyalash ko'p jihatdan ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi texnika vositalari va qo'llaniladigan texnologiyalarga bog'liq. Aholi punktlarida qurilish qilishda, birinchi navbatda, maxsus texnika vositalaridan foydalanish va muayyan texnik operatsiyalar (payvandlash, metallni kesish, bo'yoq va lak kabi uchuvchi

tarkibiy qismlarni o'z ichiga olgan boshqa materialarni surish)ni bajarish natijasida bir qator ifloslantiruvchi moddalar (azot dioksidi, temir oksidi, marganes va uning birikmalari va boshqalar) atmosfera havosiga chiqariladi.

Qurilish faoliyatining vaqtinchalik xususiyatiga qarab, havoga chiqariladigan chiqindilar qisqa muddatli xususiyatga ega bo'lib, qurilish faoliyati ishga tushgandan keyin ularning tarkibi va tabiati o'zgaradi.

Shu bilan birga, ko'p hollarda aholi punktlarida qurilish ishlari amalga oshiriladigan hududlarda hosil bo'ladigan qurilish chiqindilarini joylashtirish uchun maxsus poligonlar mavjud emasligini ta'kidlash lozim.

Tabiiy resurslar zaxiralari kamayganda, ulardan foydalanish hajmining o'sishi global miqyosda tabiiy muhit tanazzulining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qayta tiklanmaydigan tabiiy manbalardan oqilona foydalanish va qayta tiklanadigan manbalardan to'laqonli foydalanish bu sohadagi asosiy vazifalardan hisoblanadi. Bu borada V.V. Kruglov ta'kidlaganidek, sanoat korxonalarining tabiatni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatini huquqiy tartibga solish va tashkil etish kamchiqitli va chiqitsiz, resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish, ekologik xavfsiz mahsulotlar chiqarish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim [12].

O'zbekiston Respublikasida qurilish sohasi so'nggi yillarda izchil rivojlanayotgan iqtisodiy taraqqiyotning drayveri bo'lmoqda. Shu bilan birga, qurilish sohasini ekologizatsiyalash, ya'ni ekologik jihatdan tejamkor, kamchiqitli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha zarur chora-tadbirlar belgilanmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son Farmonida ham Qurilish vazirligining asosiy vazifalaridan biri sifatida resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydigan energiya samarador va energiya tejaydigan innovatsion loyiha va qarorlarni qurilish faoliyatiga joriy etish nazarda tutilgan.

Ta'kidlash lozimki, g'isht ishlab chiqarishning tabiiy va iqtisodiy zarari ko'p, xususan, tuproqni qayta tiklab bo'lmaydi, yerning unumdorligi pasayib ketadi, gaz sarfi katta, shuningdek, ekologi-

ya va atrof-muhitga salbiy ta'siri yuqori. Sobiq ittifoq mamlakatlaridan tashqari, ko'plab davlatlar, xususan, Yevropa davlatlarida g'isht ishlab chiqarishdan allaqachon voz kechilgan. Shularni inobatga olib, kelgusida gazobeton, penobeton kabi zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqarishni kengaytirish qurilish sohasini ekologizatsiyalashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining qurilish sohasiga oid qonun hujjatlari tizimini o'rganish shundan dalolat beradiki, so'nggi 2-3 yil ichida mamlakatda qurilish sohasini ekologizatsiyalashga qaratilgan o'nga yaqin qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularda, jumladan, quyidagi tartib-qoidalar belgilandi:

birinchidan, loyiha hujjatlari obyektning energiya samaradorligi talablariga muvofiqligi bo'yicha majburiy tartibda ekspertizadan o'tkazilishi shartligi belgilandi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi va hududiy inspeksiyalar inspektorlariga obyektlarda inson salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi sifatsiz qurilish materiallari va buyumlar qo'llanilgani aniqlangan hollarda, qurilish materiallari va buyumlar ishlab chiqarish, sotish va qo'llashni to'xtatib turish haqida tegishli organ va tashkilotlarga taqdimnomalar yuborish huquqi berildi;

uchinchidan, energiya tejamkorlik mezonlariga muvofiq kelmaydigan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarni 2021-yildan e'tiboran ko'mir va tabiiy gazga muqobil bo'lgan boshqa yoqilg'i turlaridan foydalanishga bosqichma-bosqich o'tkazish belgilandi;

to'rtinchidan, zamonaviy innovatsion ishlanmalarni hisobga olgan holda, qurilish me'yorlari va qoidalarini takomillashtirish hamda ekologik jihatdan xavfsiz qurilish materiallarini amaliyotga joriy etish yo'nalishida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishini ta'minlashda texnologik modernizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda;

oltinchidan, 2025-yilgacha milliy shaharsozlik normalari hamda qoidalarini kamida 50 foiz darajasida xalqaro normativ va standartlarga moslash vazifasi belgilandi.

Ta'kidlash lozimki, ushbu maqsadli ko'rsatkichga erishish maqsadida 2021-yilda 10 %, 2023-yilda 30 % hamda 2025-yilda 50 % milliy shaharsozlik normalari va qoidalarini xalqaro normativ va standartlar bilan uyg'unlashtirish nazarda tutilgan. Biroq mazkur maqsadli ko'rsatkichlarga erishish uchun milliy shaharsozlik normalari va qoidalarining ro'yxati qayta ko'rib chiqilishi lozim.

Qurilish faoliyatining ekologik-huquqiy mexanizmi (xo'jalik faoliyati turi sifatida)dan foydalangan holda, huquqiy tartibga solish uzoq vaqtdan beri qo'llaniladi. Aholi sonining o'sishi va urbanizatsiya kengayishi tufayli harakatga kelgan qurilish sohasining o'zi ham xalqaro, ham milliy iqtisodiy o'sishning qulay omili hisoblanadi. BMT Taraqqiyot dasturida ta'kidlanishicha, qurilish sektori manbalarni tejash muammosini hal qilishda markaziy o'rinni egallashi kerak, chunki qurilish sohasi dunyoning ko'pgina energiya manbalarini iste'mol qiladi, shu bilan birga, ushbu soha (boshqa tarmoqlar bilan solishtirganda) o'z samaradorligini oshirish uchun katta va dunyo miqyosida issiqxona gazlarini kamaytirish uchun eng katta imkoniyatlarga ega [13].

Qurilish sohasini ekologizatsiyalash tabiatdan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga zararli ta'sirni kamaytirish, qurilish uchun tabiiy obyektlar va bino yoki inshootning butun hayot sikli davomida qulay atrof-muhit va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy, texnologik, texnikaviy va boshqa tadbirlar tizimini qabul qilishni ko'zda tutadi.

Ekologizatsiyalash qurilish sohasining raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadalashtirish, ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan chambarchas bog'liq. Qurilish sohasini ekologizatsiyalash asosida barqaror rivojlanish va qulay muhitni ta'minlash maqsadida inson, jamiyat va davlatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini oqilona uyg'unlashtirish tamoyili yotadi.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasi inson faoliyati va tabiiy manbalarni tejashning oqilona uyg'unlashuvidan iborat bo'lib, zamonaviy jamiyatning asosiy ehtiyojlari, kelajak avlodlar ehtiyojlarini ta'minlash imkoniyatini xavf ostiga qo'ymasdan qondirishga imkon beradigan iqtisodiy rivojlanishni nazarda tutadi.

Bunda davlatning asosiy vazifasi iqtisodiy rivojlanish sharoitida ommaviy va xususiy man-

faatlarning muvozanatini ta'minlash hamda ekologik va iqtisodiy nizolarni hal qilishdan iboratdir.

Iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikning yo'qolishi, tabiiy zaxiralarning kamayishi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan boshqa ekologik muammolar bilan bog'liq global ekologik muammolar fan va amaliyotda "yashil" atamasining hayot faoliyatining turli xil obyektlari va jarayonlariga nisbatan faolroq qo'llanilishini belgilaydi. Bu ularning ekologik jihatdan xavfsiz xususiyatlarini ko'rsatadi (Masalan, BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro ish beruvchilar tashkiloti va Kasaba uyushmalarining xalqaro konferensiyasi birgalikda "Yashil ishchi o'rinlari" deb nomlangan tadbir o'tkazmoqda). Shu bilan birga, qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvi so'nggi yillarda fan va amaliyotda yangi qurilayotgan bino va inshootlarning "yashil" qurilish [14] kabi yuqori sifatini ta'minlovchi yangi yo'nalishning paydo bo'lishiga olib keldi. "Yashil" qurilish tushunchasining paydo bo'lishi dunyo iqtisodiyotining "yashil" iqtisodiyotga o'tishga qaratilgan umumiy tendensiyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda, avvalambor, ishlab chiqarishning energiya tejamkorligi, energiya samaradorligi strategiyasini targ'ib qilish, muqobil energiya manbalaridan keng foydalanish kabi maqsadlar ko'zlanadi. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi xalqaro hamjamiyat tomonidan 2008-yildagi moliyaviy inqirozni hal qilish vositasi sifatida qo'llanilib, 2012-yilda bo'lib o'tgan BMTning barqaror rivojlanish bo'yicha "Rio + 20" konferensiyasida barqaror rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish doirasidagi mavzulardan biri bo'lgan. 2011-yilda BMTning Taraqqiyot dasturi "yashil" iqtisodiyot haqida ma'ruza e'lon qildi va uni insoniyat farovonligini yaxshilash hamda atrof-muhit o'zgarishi va ekologik resurslar yetishmovchiligi bilan bog'liq tahdidlarni qisqartirish orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiyot sifatida ta'rifladi.

Qonunchilikda energiya tejash va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha O'zbekiston iqtisodiyotining umumiy yo'nalishi yanada izchilroq aks ettirilmogda. Qurilish jarayonining barcha bosqichlarida va binoning hayot siklida ushbu yo'nalishni amalga oshirish tabiiy qayta tiklanmaydigan energiya manbalarini (neft, ko'mir, tabiiy gaz) iste'mol qilishning pasayishi,

issiqxona gazlari va boshqa zararli moddalarning emissiyasi ko'rinishida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishining kamayishiga olib kelmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 21-maydagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi O'RQ-539-son Qonuni 14-moddasida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish sohasidagi imtiyozlar va preferensiyalar belgilangan. Unga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan energiya ishlab chiqaruvchilar qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun mol-mulk solig'ini to'lash hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran o'n yil muddatga ozod etiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan ozod etiladi. Amaldagi energetika resurslari tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan yashash uchun mo'ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar egaligidagi mol-mulkka qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e'tiboran uch yil muddatga jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i solinmaydi.

Mamlakatimizda yashil qurilishning huquqiy va texnik jihatdan tartibga solinishi atrof-muhitni qurilish, rekonstruksiya qilish, foydalanishga topshiriladigan obyektни ishlatishning salbiy ta'siridan himoya qilish, qurilish materiallari va konstruksiyalarining ta'sirini kamaytirish, qurilish ishlari davomida chiqindilar hosil bo'lish hajmini sezilarli darajada qisqartirish, energiya tejash, bino-inshootlarning energiya samaradorligi va suvdan oqilona foydalanishni ta'minlashga qaratilgan.

"Yashil" qurilish – bu bino va inshootlarni qurishda ekologik toza materiallardan foydalanish, binolar, inshootlarning energiya samaradorligini oshirish va ularning atrof-muhitga salbiy ta'siri eng kam darajada bo'lishini ko'zda tutuvchi integratsiyalashgan tushunchadir. "Yashil" qurilish talablarining joriy etilishi qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvini ta'minlaydi hamda tabiatga zararli ta'sirni kamaytirish, tabiiy manbalarni (shu jumladan, energetik) iste'mol qilish darajasini pasaytirish va ulardan oqilona foyda-

lanishni amalga oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

Maxsus adabiyotlarda "yashil qurilish"ning uchta ustuni ifodalangan: binoning qulayligiga qo'yiladigan maxsus talablar, obyekt tomonidan resurslar sarfini sezilarli darajada kamaytirish, shuningdek, binoning uning ichidagi odamlar va atrof-muhitga ta'sirining yo'qligi [15]. Boshqacha aytganda, "yashil" qurilish – barqaror rivojlanish tamoyillariga muvofiq, qulaylik, energiya tejankorlik, ekologik jihatdan tozalik va atrof-muhitni muhofaza qilish talablariga javob beradigan qurilish hisoblanadi.

Shu bilan birga, huquqiy tartibga solishning yetarli darajada emasligi ko'chmas mulk bozori ishtirokchilari tomonidan "ekologik qurilish" rivojlanishi yo'lidagi jiddiy to'siqlardan biridir. "Yashil" qurilishga ko'maklashishga qaratilgan huquqiy normalar qurilish sohasida ommaviy va xususiy manfaatlarning uyg'unligini ta'minlashi hamda ekologiyaga yo'naltirilgan tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zamin yaratishi kerak.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasida resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, "yashil infratuzilma"ni yaratish, binolarning energiya samaradorligini oshirish sohasidagi chora-tadbirlar, past uglerodli texnologiyalar (issiqlik nasoslari, qayta tiklanadigan energiya manbalari) va xususiy xo'jaliklarda yanada toza yoqilg'i turlaridan foydalanishni rag'batlantirish kabilar belgilangan.

Guvohi bo'lganimizdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"da ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining asoslari, bu boradagi davlat siyosatining strategik maqsadiga erishishni ta'minlovchi asosiy vazifalar qatoriga ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotning o'sishini ta'minlash va ekologik jihatdan samarali innovatsion texnologiyalarni joriy etish, atrof-muhitga salbiy ta'sirining oldini olish va kamaytirish nazarda tutilmoqda. Mazkur muammoni hal qilishda iqtisodiyot tarmoqlari, shu jumladan, qurilish faoliyatida ham "yashil" standartlarni qo'llash bo'yicha xalqaro tajribani hisobga olgan holda, sertifikatlangan bino va inshootlarni qurish hajmini (ko'chmas mulk obyektlarini ixti-

yoriy ekologik sertifikatlash tizimida) ko'paytirish talab etiladi.

### Tadqiqot natijalari

Turli maqsadlarda qurilayotgan mavjud bino va inshootlarning ekologik samaradorligini baholash uchun xorijiy mamlakatlarda "yashil" standartlar ishlab chiqilgan. Binolarning ekologik samaradorligini baholash uchun bir nechta xalqaro tizimlar mavjud. Qurilishdagi xalqaro "yashil" standartlar orasida eng taniqli tizimlarga BREEAM (Buyuk Britaniya), LEED (AQSH), DGNB (Germaniya) kabilarni kiritish mumkin. Mazkur tizimlarning har biri ishlab chiqilgan reyting ko'rsatkichlari asosida turli darajadagi sertifikatlashni ta'minlaydi. Ushbu tizimlar xalqaro maqomga ega va binolarni ularning hududiy joylashuvi va "milliy" mansubligidan qat'i nazar baholash uchun ishlatiladi. Masalan, 2018-yil ma'lumotlariga ko'ra, LEED sertifikatiga ega bo'lgan binolarning 43 % m<sup>2</sup> AQSH hududidan tashqarida joylashgan. Ushbu davrda Rossiya Federatsiyasida 122 ta, Qozog'istonda 44 ta obyektlar BREEAM standartlari bo'yicha qamrab olingan bo'lsa, O'zbekistonda birorta ham "yashil" standartga ega bo'lgan bino mavjud emas. Shu bilan birga, Tashkent City kompleksida BREEAM standarti bo'yicha sertifikatlashtirishdan o'tish rejalashtirilganligi ma'lum qilingan.

Ta'kidlash joizki, ushbu tizim milliy qonunchilikda standartlashtirish va sertifikatlashtirish elementlarini qamrab oluvchi texnik tartibga solish mexanizmi asosida qurilayotgan bino va inshootlarga (shu jumladan, loyihalash bosqichida) kuchaytirilgan ekologik talablarni shakllantirish nuqtayi nazaridan qurilish faoliyatini huquqiy tartibga solishni ta'minlaydi.

"Yashil" mezonlar asosida standartlashtirish fuqarolarning hayot sifati va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) raqobatdoshligini oshirishning samarali vositasi sifatida ko'rib chiqilishi kerak. Texnik jihatdan tartibga solish obyektlariga qo'shimcha talablarni belgilash orqali standartlar amalga oshirilganda, fuqarolarning hayoti yoki sog'lig'i, ekologik xavfsizligi, hayvonlar va o'simliklar xavfsizligi darajasini oshirish ta'minlanadi.

"Yashil" standartlarga ega bino va inshootlarning, joylashuvidan qat'i nazar, atrof-muhitga zararli ta'sirini baholash uchun bir xil mezonlarni qo'llash mumkin. "Yashil" sertifikatlash tizimi iste'molchilarga binolarni atrof-muhit va tabiatga

ta'siri darajasi bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. Tashkilotlar tomonidan qabul qilingan "yashil" (ekologik) standartlar mamlakatda "yashil" qurilishni ta'minlaydigan qoidalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Dunyo mamlakatlarida "yashil" qurilishning rivojlanishi ushbu konsepsiyani ommalashtirish hamda fuqarolarning ekologik madaniyati va ekologik faolligining umumiy darajasini oshirish orqali ham ta'minlanadi. Tabiiy resurslarga iste'molchilik munosabati ularning samarasiz ishlatilishi va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib keladi.

Qurilish sohasida ortib borayotgan ekologik talablardan, shu jumladan, xususiy-huquqiy vositalar yordamida foydalanish, bu mumkin bo'lgan xavfning oldini olish va minimallashtirishga imkon beradigan bino va inshootning atrof-muhit uchun xavfsizligining qo'shimcha kafolatidir. "Yashil" standartlar asosida qurilgan binolardan foydalanishning iqtisodiy afzalligi bunday binoning ishlash bosqichida namoyon bo'ladi (suv sarfining kamayishi, energiya sarfi, ijara to'lovlari uchun ko'payishi va boshqalar).

Qurilishning boshlang'ich bosqichida – binoni loyihalashda "yashil" standartlardan foydalanish ular narxining sezilarli darajada oshishiga olib kelmaydi. Masalan, xalqaro mutaxassislarining fikriga ko'ra, ekologik ofis binosini qurish xarajatlarining o'rtacha o'sishi 4-8 %, eng murakkab loyihalar uchun 18 % gachani tashkil etadi.

Nomoddiy imtiyozlardan tashqari bunday bino muhandislik tarmoqlariga ulanish narxini pasaytirish, energiya va manbalar uchun to'lovlarni kamaytirish, texnik xizmat ko'rsatish xarajatlarini qisqartirish, ijara haqini ko'paytirish va bo'sh joylar ulushini kamaytirish imkonini beradi. Natijada binoning butun hayot siklini hisobga olganda, ekologik qurilish har doim ham afzalroqdir. Xususan, Greg Kats tadqiqotlarida (2010-y.) oddiy va "yashil" qurilish narxi o'rtasidagi farq yuqori emasligi hamda AQShdagi 170 ta "yashil" binolar bo'yicha ma'lumotlar ular oddiy binolardan o'rtacha 1,5 foizga qimmatroqligi qayd etiladi [16]. BMT Taraqqiyot dasturining hisobotida (2011-y.) bino qurilganidan keyin "yashil modernizatsiya" loyihalashtirishning [16] dastlabki bosqichlarida barqaror rivojlanish qoidalarni birlashtirishga qaraganda moliyaviy va ekologik jihatdan katta xarajatlarni talab etishi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida byudjet mablag'lari hisobidan qurilish jarayonida "yashil" standartlarni ommalashtirish va amalga oshirishning samarali usullari – ekologik sertifikatlariga ega bo'lgan qurilish mahsulotlariga davlat va jamoat ehtiyojlarini qondirish uchun tovarlar, ishlar, xizmatlarni sotib olish bo'yicha tender hujjatlari talablarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Ushbu holat AQSH va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining ekologik sertifikatlashtirish va "yashil" standartlarni amaliyotga joriy etish tajribasiga mos keladi. Masalan, AQShda ijtimoiy va munitsipal obyektlar uchun ularni majburiy ekologik sertifikatlashtirish tizimi joriy qilingan [17]. Shuningdek, qurilish uchun yer uchastkasini auksion (tender) asosida ajratishda qurilishni "yashil" standartlarga binoan amalga oshirishni taklif etayotgan talabgorga ustunlik berish to'g'risidagi qoidani ham qonunchilikda qayd etish maqsadga muvofiq.

Ta'kidlash lozimki, qonunchilikda "yashil" qurilishni rivojlantirishni rag'batlantirish, uning afzalliklari to'g'risida aholini xabardor qilish va tegishli talablarni hayotga tatbiq etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin.

Umuman olganda, "yashil" qurilish tabiiy resurs sarfini kamaytirish va maqbullashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga, kelgusida bino va inshootlarning energiya tejashi va energiya samaradorligini ta'minlashning huquqiy asoslarini ishlab chiqish lozim.

#### **Xulosalar**

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida quyidagi xulosalarga kelindi.

Tabiiy obyektlardan hozirgi va kelajak avlodlar manfaatlariga muvofiq oqilona foydalanishni ta'minlaydigan qulay atrof-muhitga mavjud bo'lgan ehtiyoj va barqaror rivojlanish konsepsiyasi dunyo xalqlari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qurilish sohasini ekologizatsiyalashni izchil va tizimli ravishda amalga oshirishni taqozo etadi.

Ko'chmas mulk obyektlarini loyihalashtirish, qurish va rekonstruksiya qilish va ular asosida binolarni sertifikatlashtirishda "yashil" standartlardan qisman foydalanilganiga qaramay, "yashil" qurilish ushbu sohani ekologizatsiyalashning o'ziga xos va istiqbolli usulidir. "Yashil" qurilishning afzalliklari to'g'risida aholini xabardor qilish va "yashil" standartlar talablarini amalda xususiy va ommaviy huquq vositalari asosida joriy etish jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratadi. "Yashil" qurilishni huquqiy tartibga solish qurilish materiallari va konstruksiyalarning atrof-muhitga ta'sirini kamaytirish, qurilish ishlarini bajarishda chiqindilarni kamaytirish, energiya tejash, bino va inshootlarning energiya samaradorligini oshirish, suvdan oqilona foydalanishga qaratilganligi isbotlangan. Shu sababli qurilish sohasini ekologizatsiyalashning yana bir usuli – atrof-muhit va uning tarkibiy qismlarini muhofaza qilishning talablarini hisobga olgan holda, tabiiy obyektlardan (o'rmon, yer, suv obyektlari, yer osti boyliklari) qurilish maqsadlarida oqilona foydalanishdir.

"Yashil" qurilish talablarining joriy etilishi qurilish sohasining ekologizatsiyalashuvini ta'minlaydi hamda tabiatga zararli ta'sirni kamaytirish, tabiiy manbalarni (shu jumladan, energetik) iste'mol qilish darajasini pasaytirish va ulardan oqilona foydalanishni amalga oshirishning eng muhim sharti hisoblanadi.

"Yashil" qurilish o'sish sur'atlarining tezlashishiga ta'sir ko'rsata oladigan ommaviy-huquqiy vositalar tizimida davlat tomonidan iqtisodiy rag'batlantirish choralari muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan rag'batlantirishning asosiy turlari sifatida ko'chmas mulk bozori ishtirokchilarining aksariyati "yashil" loyihalar uchun soliq imtiyozlari, ekologik qurilish sohasidagi davlat dasturlarini rivojlantirish, "yashil" loyihalarni subsidiyalash, ekologik jihatdan samarali uy-joy sotib olishda jismoniy shaxslar uchun maxsus imtiyozlarni ko'rsatish mumkin.

#### **REFERENCES**

1. Fayziev Sh.X. Teoreticheskie problemi pravovogo obespecheniya ekologicheskoy politiki Respubliki Uzbekistan. Diss. dokt. yurid. nauk [Theoretical problems of legal support of environmental policy of the Republic of Uzbekistan. Dr. sci. of law diss.]. Tashkent, 2004, 95 p.

2. Alixonov B. Ekologik qonunchilik istiqboli [Prospects of environmental legislation]. Huquq va burch – Rights and duties, 2010, no. 3, pp. 7-8.
3. Brinchuk M.M. Teoreticheskie problemi jekologizacii zakonodatelstva. Razvitie idey O.S. Kolbasova o koncepcii ekologicheskogo prava [Theoretical problems of ecological legislation. Development of ideas O.S. Kolbasova on the concept of ecological law]. Ekologicheskoe pravo – Ecological law. Moscow, 2007, no. 6, pp. 16-21.
4. Safarov Dj.I. Ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va qonunchilikning boshqa tarmoqlarini ekologizatsiyalash masalalari [Issues of systematization of ecological legislation and greening of other branches of legislation]. TDYuI Axborotnomasi – Bulletin of TSLI, 2010, no. 2, pp. 92-93.
5. Muhitdinov N.B. Zakon Respubliki Kazahstan ob ohhrane okruzhajushhej prirodnoj sredy: problemi i osobennosti ih reshenija [Law of the Republic of Kazakhstan on environmental protection: problems and features of their solution]. Gosudarstvo i prav – State and Law, 1992, no. 8, p. 90.
6. Yakovlev V.N. Ekologicheskoe pravo [Environmental law]. Kishinev, Shtiinsa Publ., 1998, 23 p.
7. Bogolyubov S.A. Aktual'nye problemy jekologicheskogo prava: uchebnik dlja magistrrov [Actual problems of environmental law: a textbook for masters]. Moscow, Yurayt Publ., 2011, 27 p.
8. Petrov V.V. Koncepcija jekologicheskogo prava kak pravovoj obshnosti, nauki i uchebnoj discipliny [The concept of environmental law as a legal community, science and academic discipline]; Brinchuk M.M. Jekologo-pravovoj mekhanizm: ponyatie i sushnost [Ecological legal mechanism: concept and essence]. Jekologicheskoe pravo – Environmental law, 2013, no. 3, pp. 12-13, 37.
9. Vasil'eva M.I. Konceptual'nie voprosy sovershenstvovaniya jekologicheskoy politiki i zakonodatelstva ob ohhrane okruzhayushhej sredy [Conceptual issues of improving environmental policy and legislation on environmental protection]. Jekologicheskoe pravo – Environmental law, 2007, no. 2, p. 9.
10. Brinchuk M.M. Teoreticheskie problemy jekologizacii zakonodatel'stva [Theoretical problems of the greening of legislation]. Jekologicheskoe pravo Rossii: Sbornik materialov nauchno-prakticheskix konferensiy (2005-2007)]. [Environmental law of Russia: Collection of materials of scientific and practical conferences (2005-2007)]. Moscow, 2009, pp. 327-332. (In Russ.)
11. Vasil'eva M.I. O metodah, sredstvax i sposobah pravovogo regulirovaniya jekologicheskix otnoshenij [On the methods, means and ways of legal regulation of environmental relations]. Ekologicheskoe pravo – Environmental law, 2009, no. 2/3, p. 60.
12. Kruglov V.V. Teoreticheskie osnovy pravovogo regulirovaniya i organizacii prirodohrannoy dejatel'nosti promyshlennyh predpriyatij v uslovijah rynochnoj jekonomiki v RF [Theoretical foundations of legal regulation and organization of environmental protection activities of industrial enterprises in a market economy in the Russian Federation]. Rossijskij juridicheskij zhurnal – Russian legal journal, 2012, no. 4, pp.190-197.
13. UNEP, 2011. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Buildings: Investing in energy and resource efficiency. Available at: [www.unep.org/greeneconomy/](http://www.unep.org/greeneconomy/).
14. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Available at: <http://www.unep.org/greeneconomy/>.
15. Duving S. "Zeljonye" zdaniya v Rossii i za rubezhom ["Green" buildings in Russia and abroad]. YuNIDO v Rossii – UNIDO in Russia, 2012, no. 8, p. 72.
16. UNEP, 2011, Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. Buildings: Investing in energy and resource efficiency).
17. Rossijskij fond informacii [Russian information fund]. Available at: <http://www.rfimnr.ru/activity/green-standards.html/>.